

**PEDAGOGIK ODOB VA IMIDJ –
FAOLIYATNING AMALIY ASOSI SIFATIDA**

Rayimova Shahnoza Sodiqovna¹

¹ Farg'onan davlat universiteti 1-bosqich magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.01.2025

Revised: 14.01.2025

Accepted: 15.01.2025

KALIT SO'ZLAR:

*pedagog, pedagogik
imidj, ijodkorlik, ta'lif,
tarbiya.*

Pedagog o'z kasbiga, o'z mutaxassisligiga to'liq yondashar ekan, o'zidagi mavjud xulq-atvor me'yorlari, shaxsiy sifat hamda fazilatlari, shaxsiy va kasbiy komponentlari majmuyidan to'liq foydalana olishi, bunda o'z ustida ishlash, ijodkorlik, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik, samimiylilik, ochiqko'ngillik kabi insoniy sifatlarning faoliyatdagi asosiy kategoriyalardan ekanini anglashi lozim. Maqolada aynan bu boradagi qarashlar ifoda etilgan.

KIRISH. Ma'lumki, pedagogning ta'lif-tarbiyaviy faoliyatga kirishishi bir vaqtning o'zida kasbga bo'lgan mehr, bolalarni sevish, maktabgacha ta'lif tashkilotidagi mavjud imkoniyat va qulayliklardan foydalangan holda tarbiyalanuvchilarga bilim berishda o'zidagi nazariy va amaliy faoliyat ko'nikmalarni to'laqonli qo'llay olish malakasini ham talab etadi. Bolalar bilan ishlash, ularni o'yin, ta'lif-tarbiyaviy faoliyatga qiziqtirish, diqqatini jalgan etish, tinchlanirish kabi jarayonlarda pedagogning faoliyatida muhim hisoblangan kasbiy va shaxsiy komponentlarning qay darajada ekan faoliyatlarning sifat va samaradorligiga ta'sir etadi. Pedagogning shaxsiy va kasbiy komponentlari negizida pedagogik odob va imidj muhim mohiyat kasb etgan holda, pedagogni kasbga, kasbga doir bilimlar majmuyiga nazariy va amaliy jihatdan bog'lashga xizmat qiladi.

Har qaysi soha, har qaysi kasb egasiga birdek aloqador bo'lgani kabi, ta'lif-tarbiya tizimi xodimlari, xususan, pedagoglarning ham imidj qiyofasi mavjud. Pedagogning ichki va tashqi xarakterini ifodalovchi, uning bilim, dunyoqarash, did, madaniy-ma'rifiy bilimi, ong-u tafakkuri, saviya va yetuklik darajasini namoyon etuvchi, o'zining ichki "men"ini ko'rsatuvchi imidj ta'lif sohasida pedagogning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat

qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Imidj bir yoqlama emas, balki keng qamrovdagi ma'nomazmunni anglatuvchi tushunchadir. Ushbu tushunchaning atrofida pedagogning qator shaxsiy va kasbiy sifatlari, fazilatlari jamlanadiki, ularning qanchalik to'liq va mukammal ekani pedagogning ta'lif-tarbiyaviy jarayonlarga kirishuvi bilan bog'liq holda, o'zining tarbiati, tashqi qiyofasi mukammalligini ham nazarda tutadi.

Imidj (qiyofa) pedagogning zoxiriy va botiniy aksi, tashqi ko'rinishida, xattiharakatida, fe'l-atvorida, muomala-munosabatida namoyon bo'luvchi turg'un hamda uyg'unlikdagi did, xarakter tanloving birligidir.

Pedagogikada pedagogning shaxsiy va kasbiy komponentlari majmuyi g'oyat muhim sanaladi. Kuzatuvchan, tez o'zlashtiruvchan, taqlidchan, so'rovchan, qiziquvchan davrni o'z ichiga olgan va aynan maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar bilan ishlar ekan, har bir pedagog oldida muhim vazifa, qat'iy mas'uliyat, shaxsiy javobgarlik masalasi ko'ndalang turadi. Buni pedagogik odob va imidjning quyidagi tartiblarida ko'rishimiz mumkin:

- Kasbini sevishi, kasbiga bo'lgan mehri, hurmat va e'tibori, o'z ustida ishlashdagi natijadorlik;
- Diqqatni ortiqcha tortmaslik, ko'rinishning me'yorda ekani, muomala va munosabatlarda tenglikni saqlash;
- Kasbiy malaka, bilim va uquvning yetarli, o'ziga nisbatan talabchan, kuzatuvchan, tanqidiy ruhda ekan;
- O'z-o'zini doimiy nazorat va tartib-intizomga asoslanishi, irodaviylik, mas'uliyat va ishonchning birligi;
- Mehnat jamoasida hurmat va shaxsiy pozitsiyasini namoyon etishda erkinlik, ta'lif-tarbiyaviy jarayonlarda qulaylikni his etishga intilishi;
- O'zi intilgan maqsad va marralarga erishishga bo'lgan qadamlarining dadilligi, aniqlik va puxtaligi.

XVI-XX asrlarda Yevropa mamlakatlarida yashagan pedagoglar o'qituvchining kasbiy faoliyati, uning mahorati va axloqiy fazilatlari haqida o'z (asarları) qarashlarida bayon etib, maktab-maorif va pedagogik fikrlar taraqqiyoti rivojiga muhim hissa qo'shdilar. O'qituvchi va uning professional sifatlari to'g'risidagi muammolar chet ellik olimlar Y.A.Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotsi, A. Disterverg, K.D. Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topdi. Jumladan, ulug' chex olimi, pedagog Y.A.Komenskiy (1592-1670) o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga *bolani sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyatি* kabilarni kiritib, ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Pedagogning o‘z kasbiga mosligi uning ishga bo‘lgan ishtiyoqi, yaratuvchanligi, kreativligi, tashabbuskor, ilg‘or, o‘z ustida ishlay bilish qobiliyati, bilimlarni o‘zlashtira olish malakasi, yangiliklarga intiluvchan, kuzatuvchanligi bilan ham baholanadi. Pedagogik odob, asosan, tarbiyachining (pedagogning) ichki olami, ma’naviy dunyosining nechog‘lik boy yoki o‘rtamiyona ekanini ko‘rsatib beradigan ko‘zgudir.

Pedagogik odob negizida shuningdek, hissiy barqarorlik ham muhim hisoblanadi. Faoliyatdagi kutilgan va kutilmagan vaziyatlarga doimiy tayyorlik, o‘zini tuta bilish, kuchli hayajon, stress, qo‘rquv kabilarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaslik, muhitga tez moslashuvchanlik kabilarga pedagogik odob tasnifida o‘rta guruhga taalluqli mezonlar sifatida qarashimiz mumkin. Shu o‘rinda savol tug‘ilishi mumin: pedagogik odobni shakllantirishning usul yoki vositalari mavjudmi? Ha, mavjud.

Pedagogik odobni shakllantirish usullari quyidagilardir:

- O‘z sohasining yetuk, malakali mutaxassislari, olim va ziyorilar bilan kechadigan yig‘in va uchrashuvlar, davralarda bo‘lish;
- O‘z sohasi va mutaxassisligidan kelib chiqib, rasmiy-idoraviy yig‘in, tadbir va anjumanlarda ishtirok etish;
- Sohada ko‘p yillar mehnat qilgan faxriylar, ustoz muallimlar bilan suhbatlashish, ulardan maslahat va tavsiyalar olish;
- MTTda ta’lim-tarbiyaviy faoliyat reja dasturlariga muvofiq namunali tadbirlar tashkillash hamda bevosita ishtirok etish.

Pedagogik odobni shakllantirish vositalari bo‘lib esa:

- Badiiy adabiyotlar;
- Badiiy kecha va tadbirlar;
- Ko‘rgazma, konsert dasturlari;
- O‘z ustida ishslash bo‘yicha materillar;
- Faoliyatni targ‘ib etish vositalari (OAV) xizmat qiladi.

Pedagogika maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan ishslashni nazarda tutuvchi tarixan mukammal shakllangan, o‘z qadriyat va an’anasiga tayangan, fundamental fan ekanidan kelib chiqsak, pedagogning kasbiy odob va shaxsiy imidji uning shaxsiy va kasbiy komponentni sifatida faoliyatda akslanadi. Pedagogik odob o‘z o‘rnida pedagogdan doimiy nazorat va barqarorlikni talab etadi. Ya’ni, pedagog kasbiy faoliyati davomida o‘zidagi barcha ijobjiy xarakter belgilari hamda sifatlarini saqlab qola olishi, ya’ni uni faoliyatda boshqara bilish qobiliyatini o‘zlashtirgan bo‘lishi ham zarur. Demak, pedagogik odob va imidj haqida so‘z ketar ekan, ularga erishuv faoliyat samaradorligini birlamchi yutuq bo‘lsa,

pedagogik odobni boshqarish ikkilamchi natija sifatida o‘z mavjudligini anglatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning bosh maqsadi ta’lim oluvchini har tomonlama shakllantirish, rivojlantirish ekan, bu vazifaga mas’ul mutaxassis, ya’ni kasb egasi bo‘lgan pedagogdan chuqur ilmiy, nazariy, fundamental bilimlar majmuyidan xabardorlik talab etiladi. **Aslida pedagoglik kasbi mohiyati ham shunda:** kasbga vijdonan yondashgan holda o‘z burchini to‘laqonli ado etish.

Shu ma’noda olib qaralganda, pedagogika sohasiga aloqador xodim xoh u yordamchi tarbiyachi, xoh oliy toifali tarbiyachi pedagog bo‘lsin, kasbiy malakanegallaganlik qatori pedagogik imidjga ham ega bo‘lishi lozim. Bu nuqtada gap pedagogning ichki va tashqi “men”ining amaliy ifodasi, qiyofasi haqida ketmoqda. Pedagog o‘zi tanlagan sohaning malakali, yetuk mutaxassisiga aylanishni maqsad qilgan, bu yo‘ldagi izlanish, ilm olish, o‘z ustida ishslash bilan birga o‘zining tashqi ko‘rinish, ya’ni kasbiy qiyofasini yaratish borasida ham izlanuvchanlikda bo‘lishini bugungi zamon, davr sharoiti talab etmoqda. Zamon, ilm bilan hamnafas bo‘lish, o‘z ustida ishslash, o‘ziga nisbatan talabchan va tanqidchan bo‘lish borasida buyuk nemis faylasufi Ioann Wolfgang Gyote shunday degan edi: **“Kimki ko‘p narsaga erishmoqchi ekan, o‘ziga yuksak talablar qo‘yishi kerak”**.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, pedagogning kasbiy va shaxsiy sifatlari bir-biriga uyg‘un va mutanosib bo‘lgandagina ta’lim oluvchilarning diqqat, qiziqishi yanada ortadi. Pedagogning kasbga bo‘lgan sevgisi, diqqat-e’tibori ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarning mukammal, yuqori sifat va samaradorlikda kechishida asosiy vositalardan ekanidan kelb chiqadigan bo‘lsak, ta’lim-tarbiyaviy jarayonlardagi ahamiyatini muhim yo‘nalishlardan biri deb baholashimiz mumkin. Chunki aynan bolaning pedagog shaxsiga beradigan bahosi tarbiyachining kasbiy bilimlari-yu shaxsiy sifatlaridan kelib chiqadi. Pedagog maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarga kirishar ekan, birinchi galda o‘zidagi ichki ijobjiy sifatlar, axloqiy fazilatlar, milliy va an’anaviy qadriyatlar majmuyini namoyon etadi. Bolani tushunish, uni qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy namuna ko‘rsatish va eng asosiysi, BOLALARNI SEVISH hissi pedagog-tarbiyachining kundalik faoliyatdagil ustuvor talablardan biri sifatida to‘la namoyon bo‘lgandagina maktabgacha ta’lim tizimida o‘zimiz kutgan a’lo natijadorlikka erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo‘latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova. Toshkent–2019 yil. “Tafakkur” nashriyoti.
2. Gyote. Hikmatlar. Toshkent – 2010. “Ma’naviyat” nashriyoti.